

## DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK KIMLARGA BERILADI VA OLIISH TARTIBI QANDAY?

A.Narziyev

Yangiyo‘l tumani adliya bo‘limi boshlig‘i.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17675246>

Davlat tomonidan aholiga yuridik yordam ko‘rsatish instituti inson huquqlarining muhim kafolatlaridan biridir. Fuqarolarning sud organlariga erkin murojaat qilish, odil sudlovga teng imkoniyatlarda erishishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning huquqlarini ta‘minlash demokratik jamiyatning poydevori hisoblanadi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, davlat xizmatlari orqali bepul yuridik yordam ko‘lamini kengaytirish, advokatura institutini mustahkamlash va xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

*Ayniqsa bu jarayonning huquqiy jihatdan takomillashtirilishi mazkur sohani rivojlantirishda muhim bosqichga olib chiqmoda.*

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi fuqarolarning davlat hisobidan yuridik yordam olish tartibini ancha yengillashtirdi. Mazkur Qonunning 9-moddasida davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega jismoniy shaxslar keltirilgan. Bular kam ta‘minlangan shaxslar, agar ular fuqarolik ishlari bo‘yicha da‘vogarlar yoki javobgarlar, ma‘muriy ishlar bo‘yicha arizachilar, ma‘muriy qamoq tarzidagi ma‘muriy jazo nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar, jinoyat ishlari bo‘yicha gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, shuningdek mahkumlar bo‘lsa;

2) ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslar, ularga “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq psixiatriya yordami ko‘rsatilayotganda;

3) o‘z huquqlari buzilgan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxslar;

4) O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq jinoyat ishi bo‘yicha advokat ishtirok etishi shart bo‘lgan taqdirda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatilishi uchun tasodifiy elektron tarzda tanlab olish yo‘li bilan jismoniy shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishga advokatlarni jalb etish, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan va davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan **maxsus elektron axborot tizimi- “Yuridik yordam” axborot tizimidan foydalaniladi.**

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish sohasidagi maxsus vakolatli davlat.

Maxsus vakolatli davlat organi:

davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini boshqaradi;

davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi davlat dasturlari loyihalarini ishlab chiqadi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatlar reyestrini yuritadi;

Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatlar reyestriga kiritilish istagini bildirgan advokatlar bilan davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar tuzilishini ta'minlaydi va ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoringni tashkil etadi;

davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash choralarini ko'radi;

davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini moliyalashtirish masalasi bo'yicha navbatdagi davr uchun budget so'rovlarini shakllantiradi;

davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qiladi hamda ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasida davlat organlari va advokatlar o'rtasidagi hamkorlik tizimini muvofiqlashtiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatni ishga jalb etish uchun jismoniy shaxslar ekstritoriallik prinsipi asosida adliya bo'limiga og'zaki, yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud, vakolatli organ yoki muassasa yoxud mansabdor shaxs davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish haqida so'rov (qaror yoki ajrim)ni "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali adliya bo'limiga yuboradi.

Tuman (shahar) adliya bo'limlari ***uch ish kuni ichida*** Ariza yoki so'rovni ko'rib chiqib, natijasi bo'yicha "Yuridik yordam" axborot tizimida davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish yoki ko'rsatishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi va ro'yxatga oladi.

"Yuridik yordam" axborot tizimi

1. Adliya bo'limining davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi qarori, shuningdek, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi (advokat) tayinlash to'g'risidagi qarori yoki sudning ajrimi ish ko'rib chiqilayotgan hudud bo'yicha advokatni tasodifiy elektron tarzda tanlaydi.
2. Tanlangan advokatning telefon raqamiga hamda "Yuridik yordam" axborot tizimidagi shaxsiy elektron kabinetiga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish uchun ishni qabul qilish yoki rad etish haqida "SMS" shaklida xabarnoma yuboradi.
3. Tanlangan advokat jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha bir soat, boshqa turdagi ishlar bo'yicha besh ish soati mobaynida ishni qabul qilishni rad etgan yoki xabarnomaga javob bermagan taqdirda, ish ko'rib chiqilayotgan hudud yoki ish ko'rib chiqilayotgan hududga yaqin hududlar doirasida boshqa advokatni tanlaydi.

Bunda Advokatlar:

- 1.Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadi.
  - 2.Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni "Yuridik yordam" axborot tizimiga kiritadi.
  - 3.Tasdiqlovchi hujjatlarning protsessual harakatlarni amalga oshirishda advokatning ishtirok etishi haqidagi qismini ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud yoki boshqa vakolatli organ (mansabdor shaxs) bilan "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali kelishadi.
  - 4.Tasdiqlovchi hujjatlarni "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilgan hududdagi adliya bo'limiga yuboradi.
- Tuman (shahar) adliya bo'limi tasdiqlovchi hujjatlarni tekshiradi hamda davlat hisobidan ko'rsatilgan yuridik yordam bo'yicha advokatga haq to'lash uchun tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo'limiga yuboradi.